

PRAGMATIK YONDASHUVDAN INGLIZ TILI TA'LIMIDA  
FOYDALANISH MASALASI

Sadikov Erkin Tursunovich <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Buxoro davlat universiteti

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (ingliz tili) PhD*

Xodjayeva Maftuna Sodiq qizi <sup>1</sup>

<sup>1</sup> 2-bosqich talabasi

MAQOLA  
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:15.02.2025

Revised: 16.02.2025

Accepted:17.02.2025

KALIT SO'ZLAR:

*Ko'rinadiki,  
so'zlovchi ham,  
tinglovchi ham faqat  
tilning shaklini  
o'zlashtirib olish bilan  
kifoyalanishi mumkin  
emas*

*Inson yashar ekan, u fikrlaydi, tafakkur qiladi.  
Mazkur o'ylar uning tuyg'ulari, ehtiyojlari va  
qarashlarini bayon etishga yordam beradi. Inson  
eshitgan, ko'rgan va his qilganlarini, albatta,  
boshqa bir kishi bilan o'rtoqlashishni istaydi.*

**KIRISH.** Inson yashar ekan, u fikrlaydi, tafakkur qiladi. Mazkur o'ylar uning tuyg'ulari, ehtiyojlari va qarashlarini bayon etishga yordam beradi. Inson eshitgan, ko'rgan va his qilganlarini, albatta, boshqa bir kishi bilan o'rtoqlashishni istaydi. Ko'rinadiki, so'zlovchi ham, tinglovchi ham faqat tilning shaklini o'zlashtirib olish bilan kifoyalanishi mumkin emas; ular muloqotning qonun-qoidalari haqida ham tasavvurga ega bo'lishlari muhim. Mazkur qonuniyatlar orqali inson o'z nuqtayi nazarini bayon qiladi, suhbatdoshining reaksiyasiga munosabat bildiradi: uni tushunadi, qo'llab quvvatlaydi, qabul qiladi yoki, aksincha, undan uzoqlashadi, masofa saqlaydi, uni rad etadi. Shu tariqa muloqotda

samaradorlikka erishish muammolari bilan faylasuflar va psixologlardan tashqari tilshunoslarning ham munozara maydoniga kirib kelishlari mantiqan to'g'riligini isbotlaydi. Aynan ularning sa'y-harakatlari natijasida til tarixi va shaklining aspektlari yetarli darajada o'rganildi. Natijada tilshunoslikda yangi bosqich – pragmatizm yaraldi. Tildan vosita sifatida foydalanib, muloqotda fikrlar almashish uchun zarur bo'lgan qonun-qoidalarini qo'llash pragmatikaning yadrovii obyektiga aylandi.

Pragmatik yondashuvdan ingliz tili ta'limida foydalanish masalasi bugungi davrning eng muhim talablaridan biri bo'lib, shu o'rinda, nisbatan nazariy xarakterga ega bo'lgan "ingliz tili ta'limi" atamasini ochiqlashga harakat qilish lozim, zero, aynan mazkur aniqlik xorijiy til o'qituvchilarining vazifalarini konkretlashtirishga yordam beradi. Ingliz tili ta'limi bu shunchaki o'qitish jarayoni bo'lib qolmay, til o'rganuvchilarni madaniy va ijtimoiy axborotlardan muhofaza qilish, ularni ushbu aspektlarga oid umummilliy va umumbashariy konsepsiyalar bilan qurollantirish; til muhitini sinf sharoitida yaratish, talabalarning tarbiyaviy ko'nikmalarini ijobiy nuqtayi nazardan shakllantirish, o'qitish faoliyatini boshqarish va nazorat qilish kabi faktorlarni o'z ichiga qamrab olgan ko'p bosqichli, tizimli metodik, pedagogik, psixologik va didaktik jarayonlar uyg'unligidan iborat. Xususan, *metodik jarayonda o'qituvchining qo'llaydigan usullari, pedagogik sohada mutaxassisning dars paytidagi funksional rollari, psixologik tamoyilga ko'ra o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro faoliyatlari davomida diqqat, idrok, tafakkur, tasavvur, tahlildan naqadar foydalanishlari, didaktik bosqichda esa o'quvchilarning shaxs sifatida axloqiy-tarbiyaviy perspektivlarini kamol toptirish kabi elementlarning til o'qitish motivlarining universal komplektatsiyani ham mazmunan, ham shaklan mukammallashtiradi.*

Ingliz tili ta'limida pragmatik yondashuvning eng muhim belgilaridan bo'lgan ijtimoiylashuv ko'nikmalaridan foydalanish o'qitishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Pragmatik-ijtimoiy ko'nikma talabaning muloqot jarayonida sotsiallashtirishni yuzaga chiqaruvchi kompetensiya bo'lib, ingliz tili ta'limida undan unumli foydalanish quyidagi komponentlarga bog'liq:

- tildan turli maqsadlarda foydalanish qobiliyatiga ega bo'lish (salomlashish, iltimos qilish, murojaat etish, istakni ifodalash, axborot almashish);

- suhbatdoshiga to'g'ri, taktik munosabat bildirish (tinglovchining kim ekanligi, masalan, bola, katta yoshli kishi, oila a'zosi ekanligini e'tiborga olish);

- muloqot qoidalariga rioya qilish (suhbatdoshining so'zlarini qunt bilan tinglash, jarayonda so'zlash navbati va tartibiga amal qilsih, ikkinchi tomonning yuz ifodalari, tana harakatlariga diqqat qilish).

Aynan ingliz tili ta'limi jarayonida esa o'qituvchilar talabalar bilan bog'liq pragmatik ijtimoiylashuv ko'nikmalarining bir qator signallariga alohida e'tiborli bo'lishlari zarur. Mazkur atributlarni imkon qadar aniq va tushunarli tarzda sharhlashga harakat qilib ko'rdik. Bu elementlar quyidagicha tavsiflanadi.

**Pragmatik ijtimoiy ko'nikma elementlari va ularning xususiyatlari**

1-jadval

| Pragmatik ijtimoiy ko'nikma elementlari | Xususiyati                                                                                                                                                                                                                        |
|-----------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Xulq-atvor</b>                       | unga ko'ra, til o'rganuvchining o'z atrofini idrok eta olishi, borliqqa nisbatan munosabatini shakllantirishi hamda aynan mazkur muhitda o'zini-o'zi idora qilishi anglashiladi;                                                  |
| <b>Hissiyot</b>                         | talabaning turli xil ta'sirlar, reaksiyalar hamda chaqiruvlarga strategik tayyor bo'lishi, ularga javob berishini namoyonlashtiradi;                                                                                              |
| <b>Topshiriqlar</b>                     | o'qituvchi tomonidan mashg'ulot davomida berilgan vazifalarga shay turishi, ko'rsatma hamda izohlarni to'g'ri tushunishi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishini aks ettiradi;                                                       |
| <b>Rejalashtirish</b>                   | talabaning bevosita yoki bilvosita muayyan maqsadga erishish uchun bir necha bosqichdan iborat maqsadlar silsilasini tashkil etishini belgilaydi.                                                                                 |
| <b>Xotira</b>                           | talaba individual tarzda o'zlashtirilgan ma'lumotini keyinchalik axborot sifatida yetkazib berishi uchun uni muntazam tafakkur va tasavvur orqali eslab qolishi, mazkur informatsiyani boshqarishga qodir bo'lishini ta'minlaydi; |
| <b>Til ko'nikmalarini egallash</b>      | talabaning tilga oid ko'nikmalarni qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan aktiv yoki passiv bosqich;                                                                                                                                  |



|                       |                                                                                                                                                 |
|-----------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Ifodalash</b>      | o'rganuvchi tomonidan qabul qilingan va egallangan ko'nikmalarni ifodalash qobiliyati bo'lib, ta'lim unumdorligini tashxislashga yordam beradi; |
| <b>Artikulyatsiya</b> | ta'lim oluvchining tilni ifodalash jarayonida aniqlikka e'tibor qaratishini ta'minlaydi;                                                        |
| <b>Ravonlik</b>       | tilni ifodalash jarayonida aniqlik bilan birga, tezlikka erishish, shu bilan birga, mujmallikdan qochishga qaratilgan faoliyatdir;              |
| <b>O'yinlar</b>       | xayrixohlik asosida ta'lim jarayonida tashkil etilgan interaktiv mashqlar hamda o'yinlarda ishtirok etish bilan bog'liq aspekt.                 |

Demak, muloqot jarayonida pragmatika va ijtimoiy ko'nikmaning o'rne salmoqli ekan, uning shakllanishida pedagogik muloqotning ham ahamiyatli ekanligini ta'kidlash joiz. Zero, muloqotning asosiy vazifalari bu – shaxsni tanish, u bilan o'zaro axborot almashish, yuzaga kelgan muloqot natijasida olinadigan tasavvurlardan iborat.

#### Adabiyotlar:

1. Rasulov, Z. (2023). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYADA MANIPULYATSIYA TUSHUNCHASI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 39(39).
2. Rasulov, Z. (2022). Об объекте исследования когнитивной семантики. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 8(8).
3. Rasulov, Z. I. (2023). THE NOTION OF NON-EQUIVALENT WORDS AND REALIAS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Finland International Scientific Journal of Education. Social Science & Humanities, 11(6), 35-40.
4. Sadikov, E. (2023). Teaching Pragmatic Speech Acts Of Compliments And Refusals In Accordance With Contemporary Methods. Interpretation and researches, 1(15).
5. Tursunovich, S. E. (2021). Teaching Pragmatics to Uzbek Learners of English. European Scholar Journal, 2(12), 9-12.
6. Sadikov, E. (2023). Teaching Pragmatic Speech Acts Of Compliments And Refusals In Accordance With Contemporary Methods. Interpretation and researches, 1(15).

7. Sadikov, E. (2024). Innovative Ways Of Teaching Speech Acts Through Auditory Skills. Science and innovation in the education system, 3(2), 5-8.
8. Tursunovich, S. E. (2022). Novel Teaching Technologies of Pragmatic Speech Acts.
9. Sadikov, E. (2023). Actual Issues of Teaching Pragmatic Competences to English Language Learners in Uzbekistan. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 27(27).
10. Tursunovich, S. E. (2021). Speech acts of refusals: Challenging the challenges. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2063-2067.
11. Садиков, Э. Т. (2023). ПРАГМАТИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЗНАЧЕНИЯ. Scientific progress, 4(4), 157-160.
12. Tursunovich, S. E. (2021). Teaching speech acts of compliments: What is what?
13. Tursunovich, S. E. Teaching pragmatic competence in EFL context: the case of Uzbek EFL teachers. Язык И Культура, 55.
14. Sadikov, E. T. (2021). Establishing Connectivity Between Grammar Skill Approach And Speech Acts. Is Pragmatics In Or Out. Вестник Магистратуры, 52.
15. Tursunovich, S. E. (2021). THE ROLE OF PRAGMATICS IN OVERCOMING CHALLENGES OF ACADEMIC WRITING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(11), 247-249.
16. Ikromovich, A. I. (2025). Utilizing Aphorisms in Uzbek and English to Express Linguistic Images of The World. International Journal of Language Learning and Applied Linguistics, 4(1), 79–83. <https://doi.org/10.51699/ijllal.v4i1.354>
17. Saidov, K. S. (2022). LANGUAGE EVOLUTION AND LANGUAGE ECONOMY. INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE " INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION", 1(4), 108–115. Retrieved from <https://academicsresearch.ru/index.php/iscitspe/article/view/1019>
18. Azamatjon, A. ., & Rasulov, Z. I. . (2023). The Stydying of the Notion of Language Economy in Linguistics . Miasto Przyszłości, 32, 161–164. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1120>